

## MAHMUD SA'DIY FAOLIYATI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Ibrohimova Aziza Tohirovna*

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti  
Bosma OAV jurnalistikasi yo'naliishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mahmud Sa'diyning o'ziga xos muharrirlik maktabi alohida va maxsus tahlilga, tadqiq etishga va o'r ganishga loyi q. Hozirgi axborot asri jarayonlari an'anaviy ommaviy axborot vositalari tushunchasiga, matbuot va tahririyat tushunchasiga o'zgartirishlar kiritib yubordi. Axborot texnologiyalari misli ko'rilmagan darajada o'zgardi. Ma'lumot toplash, uni matbuotda e'lon qilishga yaroqli "tayyor ashyo"ga, ya'ni materialga aylantirish ayrimlarning nazarida jo'n bir yumushga aylanib qolgandek tuyulmoqda. Vaholanki, dolzarb va muhim mavzu tanlashdan tortib, uni haqiqiy muallifiga yozdirish, maqolani tahrir qilib, gazeta sahifasiga joylashtirishgacha bo'lgan jarayon g'oyat murakkab jarayondir. Mahmud Sa'diy bu ishlarning mukammal o'zlashtirgan ustoz mutaxassislardan hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** so'z, she'riyat, professional mahorat.

Mahmud Sa'diy o'zbek jurnalistikasida o'ziga xos muharrirlik maktabini yaratgan kamyob ijodkorlardan. Kamyob deganimizning sababi Mahmud Sa'diy kabi professional, o'z sohasida yaxshi muharrir sifatida dovruq qozongan, o'ziga hos tahrir maktabini yaratgan mutaxassis kam uchraydi. Sa'diy domlaning o'zbek matbuoti, noshirlik sohasi, adabiyotshunoslik va tanqid borasidagi olib borgan faoliyati nihoyatda sermahsuldir. U ko'plab maqola va tadqiqotlari, adabiy-tanqidiy maqolalar va suhbatlari bilan matbuotimiz va adabiyotimiz rivojiga ulkan xissa qo'shdi. "Sharq yulduzi" jurnalida adabiy xodim, bo'lim mudiri, "Guliston" jurnalida katta adabiy xodim, bo'lim mudiri, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida bo'lim mudiri, "Ma'rifat" gazetasida maxsus muxbir, sharhlovchi, bo'lim muharriri vazifalarida faoliyat ko'rsatdi. So'nggi vaqtarda "Ma'rifat" gazetasida ishlash bilan birga uzoq yillar davomida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakulteti talabalariga "Tahrir san'ati" dan dars berdi.

Ma'lumki, muharrirlik ishi - murakkab ish. Chop etilayotgan publisistik material yoki kitobning bosh fazilati — mazmuniga, jumladan, tahrir saviyasiga bog'liq bo'ladi. Asarning ilmiy va ma'naviy saviyasi, ravon uslubi, to'g'ri imlosi uning taqdirini, umrini belgilab beradi. Mahmud Sa'diy materialni shoshmasdan tahrir qiladigan sinchkov muharrir edi. U umr bo'yli o'zgalar mehnatini yuzaga chiqarish uchun zahmat chekdi. So'z mulkini himoya qildi. Talabchan bu muharrir o'ziga va o'zgalarga talabchanligi orqali shuhrat qozondi. Millat ma'naviyatini yuksaltirishni bosh a'moli deb bildi. Mahmud Sa'diy o'zining Vahob Ro'zimatovga bag'ishlangan "So'z zargari" nomli maqolasida "Dunyoda odamzod uchun keraksiz birorta ham kasb yo'q. Hammasi o'z o'rnida zarur. Biroq shunday kasblar borki, ular alohida qobiliyatni, ulkan fidoiylikni, odamlar o'zligidan kechishni, o'zini o'yamaslikni talab qiladi. Tarjimonlik, muharrirlik, noshirlik, jurnalistlik ana shunday kasblardan"<sup>1</sup> deydi. Sa'diy domla ana shu o'zi sanab o'tkan barcha sifatlarning egasi edi. Zamondoshlari, yaqinlari

<sup>1</sup> Саъдий М. Фикр курдати. – Тошкент, Таълим –медиа. 2019 йил, 132-бет.

Mahmud Sa'diy qalami tahriridan chiqqan material, maqola, asarlar kamchiliksiz, mukammal matn ko'rinishiga kelishini ta'kidlaydilar. Bu borada muharrirning ishi juda murakkab. Uning muallif bilan ishslashdagi mahorati, sabr-toqati, keng fe'lligi alohida mavzu. Aslida, tahrir muallifning fikrini qaychilash emas, tahrir – muallif aytmoqchi bo'lgan, lekin o'xshatib ifodalay olmagan fikrlariga yo'l ochish demakdir. So'zga, jumlaga sayqal berish, so'z sehri va jozibasini his qilish, mulohazalarni izchil ravishda bayon etish, ortiqcha va o'quvchi e'tiborini muhimdan chalg'itadigan nomuhimlardan voz kechish deganidir. Mahmud Sa'diy bir suhbatda o'zining nima uchun tahrirga o'tib ketgani sababini shunday izohlaydi: "Nima uchun tahrirga o'tib ketganimning sababini aytsam. Universitetga kirish imtihonlariga tayyorlanayotganimda, tarix fanini o'zlashtirayotib, bir haqiqatni angladim. O'qiyman, O'rta Osiyo tarixi – 3-4 bet. Kavkaz tarixi, Urartudek davlat qurilgan joylar tarixi ham uch-to'rt bet. Hammasi – Rossiya tarixi. I-ye, bu "SSSR tarixi" emas, "Rossiya tarixi"-ku, degan fikr keldi miyamga. Nega bizning xalqimiz kamsitilishi kerak? O'sha paytda o'z yo'limni qariyb belgilab olganman: men o'z elimga xizmat qilishim kerak. Shu jihatdan idealistligimcha qolgan bo'lsam kerak. Idealist edim. Masalan, o'ylardim: shamni kim kashf qilgan? Buni hech kim bilmaydi, lekin sham odamlarga xizmat qiladi. Yoki qora chiroq. Qora chiroq ham kashf qilingan. Kim ixtiro etgan uni? Bilmaymiz. Lekin Yevropada lampochkani kim o'ylab topgani ma'lum. Men mana shu nomi yo'q bo'lib ketgan, lekin ishi qolgan odamlarning yo'lidan bormoqchi bo'ldim. Bu – yaxshi, lekin odamning o'ziga foydasiz"<sup>2</sup>. Mahmud Sa'diy muharrirlik maktabining ana shu fazilatlari sanab o'tilar ekan, ustozning qalamga sadoqati, tahrirdagi halolligi matbuotga, matbuot so'ziga, matbuot sahifalarida nomlari ko'rinadigan juda ko'plab mualliflarga sadoqati va halolligiga aylanganini alohida ta'kidlash joiz.

Mahmud Sa'diyning o'ziga xos muharrirlik maktabi alohida va maxsus tahlilga, tadqiq etishga va o'rganishga loyiq. Hozirgi axborot asri jarayonlari an'anaviy ommaviy axborot vositalari tushunchasiga, matbuot va tahririyat tushunchasiga o'zgartirishlar kiritib yubordi. Axborot texnologiyalari misli ko'rilmagan darajada o'zgardi. Ma'lumot toplash, uni matbuotda e'lon qilishga yaroqli "tayyor ashyo"ga, ya'ni materialga aylantirish ayrimlarning nazarida jo'n bir yumushga aylanib qolgandek tuyulmoqda. Vaholanki, dolzarb va muhim mavzu tanlashdan tortib, uni haqiqiy muallifiga yozdirish, maqolani tahrir qilib, gazeta sahifasiga joylashtirishgacha bo'lgan jarayon g'oyat murakkab jarayondir. Mahmud Sa'diy bu ishlarning mukammal o'zlashtirgan ustoz mutaxassislardan hisoblanadi. Asqad Muxtor rahbarlik qilgan yillarda "Guliston" jurnalining hech bir sahifasi o'quvchilar e'tiboridan chetda qolmas, buning asosiy sabablaridan biri tahririyatda o'sha davrning yetuk adiblari, shoirlari, publisistlari va, albatta, muharrirlari (Mahmud Sa'diy bo'limga muharrirlik qilgan) to'planishganida edi.

Bir suhbatda juda ko'p yillardan buyon matbuotda ishlab kelishimni ta'kidlab,

---

<sup>2</sup> Сўз хизматида кечайтган умр. Таниқли мухаррир Махмуд Саъдий билан сұхбат. Сұхбатдош Каромат Муллахұжаева //Xurshid Davron kutubxonasi.html

harfxo‘rligu, tinish belgilari bilan qurshab o‘tirish joningizga tegmaydimi, zerikmaysizmi, undan ko‘ra, bemalol, kattaroq narsa yaratishga harakat qilsangiz bo‘lmaydimi, deya so‘rab qoldi jurnalislardan biri. Chindan bu qiziq narsa. Masalan, shunaqa ishlar bor, avval ham aytganman shuni men qilmasam, hech kim qilmaydi. Maydaroq ishlar bor. Birov ularni nazariga ilmaydi. Holbuki, o‘sha mayda narsadan katta narsa paydo bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, tahrir ishiga o‘rgangan odam uchun bu ish hayotining mazmuniga aylanib qoladi. Odam havodan nafas olmasa turolmagandek, siz xatoni ko‘rsangiz tuzatgingiz kelaveradi. Ko‘zingiz shuni ko‘radi-da. Oltmisch uchinchi yillar edi, shekilli, uchinchi kursda o‘qib yurardim. Amaliyotga borganimda Laziz Qayumov raxmatli meni gazetaga ishga olgan. Besh olti oy “O‘zbekiston Madaniyati” (xozirgi “O‘zbekiston adabiyoti va sa’nati”) gazetasizda men revizor - korrokter bo‘lib ishlaganman. Gazeta chiqishdan avval uni ham o‘qiydi. Korrektor va navbatchi muharirdan keyin revizor - korrektor o‘qib qo‘l qo‘ymasa, gazeta chiqmaydi. Meni Laziz aka shu ishga qo‘ygan. Qisqasi bu kasbni men bilibmi, onglimi - ongsizmi, yaxshi ko‘rib ishlaganman, ishlayman. Mening prinsipim - bir ishni qilsam yo zo‘r qilib bajarishim kerak, yo umuman qo‘l urmasligim kerak. Bu ehtimol, yaxshi emasdир. Lekin chala- chulpa bajarganidan, yaqinlashmagan ma’qul, deb bilaman. Shu ma’noda maksimalistman. Yo bir ishni yaxshilab amalga oshirman, yo umuman yaqin yo‘lamayman. Men ham ongli hayotimning asosiy qismni ana shu yuksak san’atiga xizmat qilishga bag‘ishlanganimdan sira afsuslanmayman. Baholi qudrat qilgan mehnatim o‘zbek adabiyoti, san’ati va matbuoti ravnaqiga ozmi-ko‘pmi yaragan bo‘lsa, demak, umrim bekorga o‘tmayotgan ekan. Bu kimgadir g‘alatiroq eshtilaru lekin shu ishni men qilmasam, boshqa hech kim qilmaydi, ehtimol, qilolmas ham, degan tushuncha bor. Shundey yo‘l tutganimda, ishim ro‘yobga chiqarishga harakat qilaman. Maqsad har xil bo‘ladi-da. Birov o‘zini ko‘tarish bilan shug‘ullanadi, birov boshqalarni... Bir adib lutf qilib, allaqanday kimsalardan daholarni yaratishga intiladi deb aytgan edi. Bunda jon bor. Chunki umr bo‘yi to‘garaklar ochishimdan maqsad ham kimnidir ro‘yobga chiqarish. Hudoga shukur. Shu ishni ham qilib kelyapman<sup>1</sup>.

Mahmud Sa’diyning davlatimiz tomonidan O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist unvoniga munosib ko‘rilgani uzoq yillik halol va fidokorona mehnatlarining ulkan e’tirofidir. Bunday ko‘nikmaga hech bir jurnalist yoki muxbir to‘satdan erishib qololmaydi. Buning uchun yillar kerak bo‘ladi, tajriba to‘plash, malaka orttirish, eng muhimi, muharrirlik kasbiga ixlos va mehr-muhabbat qo‘yish zarur bo‘ladi. Mana shunday muharrirlik maktabini qadrlagan ko‘plab yoshlar Mahmud Sa’diydan saboq oldilar. Taniqli yozuvchi Omon Muhtor M.Sa’diy haqida shunday deydi: “Mahmud akani talabalik yillaridan bilaman. Ko‘pchilik talabalar kitob qo‘ltiqlab yurardi. Tabiiy hol! Ammo Mahmud akani kitobsiz yurgan holda tasavvur qilish qiyin edi. Hozir ham shunday! Balki, samimiy kulib yuborarsiz, ko‘cha-ko‘ymi, hattoki biron to‘y yoki marosimmi, kitob qo‘ltiqlab kelgan kishini ko‘rsangiz, bilingki, bu – Mahmud Sa’diy! Kitob – Mahmud aka vujudining «ajralmas bir bo‘lagi»ga aylanib ketgan. Mahmud aka katta ma’noda savodli olim. Sharqdan tushasizmi, G‘arbdanmi, duch kelgan mavzuda suhbatlasha olasiz. Har bir so‘zni dalil, isboti bilan, mantiq tarozisida tortib gapiradi. U kazo-kazo olimlarni (yashirib nima qildik, adiblarni

<sup>1</sup> Саъдий М. Фикр қудрати. –Т.: Таълим медиа, 2019. –Б. 45.

ham) «terlatib» qo‘ygan paytlarni ko‘rganman. Hayotda nodonlik va bilimsizlik hech qachon bahsda aql va bilimdan g‘olib kelolmaydi! Mahmud Sa’diy buni o‘z misolida ko‘rsatgan shaxs”.

Mahmud Sa’diying shaxs sifatida va mutaxassis sifatida shakllanishida kitobning roli juda katta bo‘lgan. Kitob - insoniyat tan olgan nihoyatda qudratli kuch. Ulug‘ yozuvchilardan biri “O‘zimda qanaqangi yaxshi fazilatlar bo‘lsa, hammasi kitobdan”, deydi. Bu – bejiz emas. Kitob Mahmud Sa’diy domlaning go‘daklik paytimdayoq hayotida qandaydir o‘zgarish yasagan. “O‘shanda 4-sinflarda o‘qir edim. Qishlog‘imizda yetti yillik maktabning kutubxonasi bor edi. O‘sha kutubxonaga borganimda, javonlardan birida “Navoiy” romaniga ko‘zim tushgan. Chiroyli muqovalangan kattagina kitob. Roman menga o‘sha paytda judayam katta ta’sir qilgan. Romanda Navoiy deysizmi, Sultonmurod deysizmi, shunaqangi zo‘r obrazlar borki, ularga qaraganda o‘zimizning qishloqning jaydari odamlari ko‘zimga qumursqalar kabi kichkina bo‘lib ko‘ringan. Men Navoiydek bo‘lishni xohlagan bo‘lsam kerak-da. Kitob ta’sirida ancha payt o‘zimga kelolmay yurganman. Hayot boshqa, kitob boshqa... Mening tushunchalarimga, romanlardan olgan taassurotlarim to‘g‘ri kelmaydi. Hatto daftaram bo‘lar edi. Eng yaxshi-yaxshi fikrlarni ko‘chirib yurardim. “Navoiy” romanidan ko‘p so‘zlarni, ko‘p hikmatli gaplarni ko‘chirib ham olganman. Hozir uni o‘qisam, boshqacharoq fikrda bo‘lishim mumkin... “Bolalikda olingen bilim toshga o‘yilgan yozuvga o‘xshaydi, hech o‘chmaydi”, deyishadi. Haqiqatdan ham to‘g‘ri fikr. “Navoiy” romanini o‘qib, shunaqa katta taassurot olganman”<sup>1</sup>.

Doimiy mutolaa, mushohada yuritishga intilish bolalikdan Mahmud Sa’diy xarakterida shakllanib boradi. Kitoblar dunyosiga kirish, tanishish bilim olish uchun, dunyoni anglash uchun, odamlarni tushunish uchun, o‘sha hayotning maromi qanday borayotganini, jarayonlar mohiyatini bilish uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki insoniyat bor ekan, unga kitob hamroh bo‘ladi doim. Kitob haqidagi fikrlar ham, bu haqdagi mulohazalar ham, bu haqda o‘ylaydigan o‘ylar ham hech to‘xtamaydi, davom etadi.

“Har kim qandaydir bir kasbni tanlaydi. Mening tushunishimcha, odam bir kasbni egallashga kirishar ekan, uni ipidan ignasigacha bilib, shu ishning ustasi bo‘lishi kerak, professional bo‘lishi kerak. Agarda inson o‘z sohasida professional bo‘lsa, hayotda qoqilmaydi, qayerda bo‘lsa ham, mehnati orqasidan ro‘schnolik ko‘radi. Viktor Vetkovichning bir kitobi bor, “Dlinnyye pisma» degan. O‘shanda o‘tgan asrning 18-20 yillaridagi Volga bo‘yidagi ocharchilikdan avval, Neverovning romani bor, “Tashkent – gorod xlebnyy”. Bir o‘qib ko‘ringlar. Vetkovich yozadiki, do‘konlar eshigi ip bilan bog‘lab tashlab ketilardi, qorovul yo‘q edi... Mana shunday halol ajdodlarimiz bo‘lgan. Xalqni poklash kerak, yuragini, ongini tozalash kerak. Bunda kitobning o‘rni juda katta”. Domlaning fikricha kitoblar xalqning xalq bo‘lib shakllanishida ham katta o‘rin tutadi.

Kitobdan birinchi maqsad – odamni shaxs sifatida shakllantirish. Bunda birov kelib sizni shakllantirib, sizni kamol toptirmaydi. O‘zingiz qilishingiz kerak hamma ishni. O‘zingiz. Navoiyning mashhur baytlaridan birini esingizga solmoqchiman:

<sup>1</sup> Саъдий М. Фикр қудрати. –Т.: Таълим медиа, 2019. –Б. 4.

*“O‘z vujudingga tafakkur aylagil,  
Har ne istarsen, o‘zungdin istagil”.*

Demak, odamning o‘ziga da’vat qilyapti. Islomda ham borku, juz’iy ixtiyor degan. Juz’iy ixtiyor, xudodan, degan gap bor. Lekin bandasiga imkoniyat ham berilgan. Shu imkoniyatdan foydalanish kerak. Bitta shu imkoniyatdan foydalanib, Burhoniddin Marg‘inoniy “Hidoya”ni yaratdi. Chunki ilgari bo‘ldi, fiqh, masalan, islom qonunshunosligi shu bilan tugadi, degan joyda o‘scha tirqishni topib “Hidoya”ni yaratdiki, butun musulmon olamini kengaytirib yubordi. Juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu ham bizning zaminimizda bo‘ldi. Biz mana shunday buyuk bobolarimiz bilan faxrlanishimiz kerak. Faxrlanib yuraverishning o‘zi kifoya qilmaydi. Avlodlar davom ettirishi kerak. Davom ettirmasak, u odamlarning avlodi emasmiz.

Kitoblar odamlarni hamjihatlikka, birdamlikka chaqiradi. Kitoblar odamlarning ko‘nglini yaqinlashtiradi. Ko‘nglini yaqinlashtirgani, demak, o‘zgartirgani shu-da. Bir millat vakili boshqa millat vakilining yuragini bilsa, uning ko‘nglini bilsa... dunyoda qanaqangi yaxshi odamlar bor. Hamma, hamma xalq yaxshi. Eng sara kitoblarda, badiiy jihatdan baquvvat kitoblarda, hayotni haqqoniy tarzda tasvirlagan kitoblarda barcha xalqlarga tegishli ezgu g‘oyalalar bor. Mana shu g‘oyalalar odamlarni birlashtiradi, tarbiyalaydi. Bitta misol keltirishim mumkin. “Chin inson haqida qissa”. Boris Polevoyniki. Eron islom inqilobining dohiysi Hayotulla Humayniy B.Polevoyning “Chin inson haqida qissa” kitobi haqida shunaqangi yaxshi fikrlar yozadi. Aslida islom bilan sobiq sovet mafkurasi o‘rtasida qanchalik katta farq bor, deysiz. Humayniy esa uning mafkurasini qo‘ying, deydi. Uning irodasi, matonati, uning qahramonligi, fidoiyligidan o‘rnak olish kerak, deydi. Oyog‘i yo‘q, dushmanga, fashizmga qarshi, yovuzlikka qarshi kurash olib boradi. Albatta, zo‘r asar millat tanlamaydi.

Kitob millatning ko‘zini ochishi kerak. Ko‘zi ochiq odam hayotning baland-pastliklarini to‘g‘ri baholay oladi.

Bobolarimiz kitoblarni o‘qib, ulug‘ ishlar qilgan, ulug‘ darajaga yetgan”, deydi Ustoz. U millat yosHLarini bobolarga munosib bo‘lishga da’vat etadi. Bu faqat o‘qish-izlanish bilan amalga oshishi mumkinligini ta’kidlaydi. Har bir o‘zbek o‘qishi kerak bo‘lgan milliy va dunyo adabiyoti namunalaridan 100 tasini ajratib, ro‘yxat tuzib, chop ettirdi. Kasbga oid va turli ensiklopedik mazmundagi kitoblarni o‘qish zaruratini tushuntirib berdi. Kitob o‘qishga, ilm olishga monelik qiladigan har qanday to‘siqlarga qarshi gohida maqolalari, gohida teleradio dasturlardagi chiqishlari orqali kurash olib bordi. Tarixni, ajdodlarni bilmaslik, qiziqmaslik holatlarini ko‘rganda, millat ma’naviyatiga salbiy ta’sir etadigan ishlarni qilayotgan rahbarlarning yuziga qattiq-qattiq aytdi e’tirozlarini. O‘z sohasida eplab yangi ilmiy maqola yoza olmaydigan akademigu professorlar ustidan ochiqchasiga kului. Shu bois uni xushlamaydiganlar ham topiladi... Adabiyot, adabiyotshunoslik Mahmud Sa’diy faoliyatining ajralmas qismidir. Uning adabiy-tanqidiy maqolalari va suhbatlarini o‘z ichiga olgan «Teran tomirlar» kitobi haqida O‘zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov fikr yuritar ekan, kitobning boshqa munaqqidlar kitoblaridan bir necha xususiyatlari bilan ajralib turishini, madaniy hayotimizda o‘z o‘rniga ega ekanligini alohida ta’kidlagandi. Munaqqidligidan tashqari Ustozning mohir muharrirligi “Sharq yulduzi”, “Guliston” jurnallari, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Hurriyat” gazetalarida sezilarli natijalar bergenini hamkasblar ta’kidlashadi. Uning mahorati

“Ma’rifat” gazetasining mazmunini yaxshilashda ham ish bermoqda. Mahmud Sa’diy 1998 yildan buyon har yili uch oy davomida tahririyatning yosh jurnalistlari, jurnalistika fakultetlarining ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishga ixtisoslashishni niyat qilgan talabalari uchun o‘zining mahorat maktabini o‘tib berdi, aytish mumkinki, uning yordamida mavzular tanlash, maqolalar yozish, mualliflar bilan ishlash, tahrir masalalari ancha yaxshilandi. So‘zni his qilish va anglash, uni o‘z o‘rnida qo‘llash kabi tahrirning o‘ziga xos jihatlarini ustozdan o‘rgangan yoshlar juda ko‘p.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Сўз хизматида кечаётган умр. Таниқли мұхаррир Маҳмуд Саъдий билан сұхбат. Сұхбатдош Каромат Муллахұжаева //Xurshid Davron kutubxonasi.html.
2. Саъдий М. Фикр құдрати. –Т.: Таълим медиа, 2019. –Б. 4.